

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOVA K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8
Bosma tabog'i:
Ofset bosma: Ofset qog'ozi.
Adadi: 10 nusxa
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

T.Egamberdiyeva Qiz bolalarda ijtimoiy faol shaxs sifatlarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	7
R.Safarova, M.Abdullayev Etnopedagogik qadriyatlar vositasida o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish usullari va metodlari	11
J.Obidov Talabalarda texnologik determinizm konsepsiyasiga oid bilimlarini takomillashtirishning pedagogik mazmuni va amaliyotdagi holati	16
F.Madraximova Ta'limni axborotlashtirish sharoitida talabalarda mediasavodxonlikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida	21
X.Tojiboyeva O'smir yoshdagi o'quvchilarda gender o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	26
IQTISODIYOT	
M.Yuldasheva, A.Kolkanatov Oilaviy dam olish madaniyatini rivojlantirishda ijtimoiy va madaniy marketing	29
S.Ismoilova Budjet mablag'laridan foydalanishning samaradorligini ifodalaydigan ko'rsatkichlar tizimi	34
FALSAFA, SIYOSAT	
A.Yuldashov Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar himoyasini ta'minlashda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning tutgan o'рни	39
D.Raxmatova Qatag'onlik siyosatining aholi ijtimoiy-ma'naviy hayotiga salbiy ta'siri (xx asrning 40-50 yillar misolida)	47
TARIX	
B.Matboboyev, A.Aloxunov Farg'ona vodiysida ilk urbanizatsiya jarayonlari	53
S.To'raxo'jayev Sovet hokimiyati tomonidan Turkiston ASSR da amalga oshirilgan bolalar evakuatsiyasi va reevakuatsiyasi tarixidan	58
R.Ahmedov Turkiston ASSRda savodsizlikni tugatish bo'yicha dastlabki chora-tadbirlarning yo'lga qo'yilishi (1918-1922-yillar)	63
Sh.Jumayev Farg'ona viloyatidagi katolik jamoalarining faoliyati: tarix va bugungi kun	70
I.Xo'jaxonov Amir Temur davri shaharsozligida turli o'zliklarning namoyon bo'lishi	74
A.Sarsenbayev, N.Turambetov Yevropada islom huquqi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tahlili (XVIII-XXI)	78
R.Akbarov Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek milliy matbuoti sahifalarida mahalliy resurslardan foydalanish masalasi	85
R.Murodaliyev So'ngak mozor-qo'rg'onining davrlashtirilishi haqida	92
N.Turambetov Yozef shaxt - islom huquqshunosligi bo'yicha taniqli yevropalik sharqshunos olim	98
X.Ergasheva 1917-1924 yillarda Farg'ona vodiysida neft sanoati tarixi	103
Sh.Xonimov Yoshlar ijtimoiy faolligi va dunyoqarashi shakllanishiga globallashtirish jarayonlarining ta'siri	109

1917-1924-YILLARDA FARG'ONA VODIYSIDA NEFT SANOATI TARIXI

ИСТОРИЯ НЕФТЯНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ В 1917-1924 ГГ

HISTORY OF THE OIL INDUSTRY OF THE FERGHANA VALLEY IN 1917-1924

Ergasheva Xusnida Esonaliyevna¹¹Ergasheva Xusnida Esonaliyevna

– O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti.

Annotatsiya

Maqolada 1917-1924-yillarda Farg'ona vodiysi neft sanoati tarixi o'rganilib, ushbu tarmoqning iqtisodiyot rivojlanishi va butun sanoatning yuksalishidagi ahamiyati ko'rsatilgan. Yangi o'rnatilgan mustabid sovet hokimiyati boshlab bergan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy jarayonlar xalq xo'jaligining barcha tarmoqlaridagi o'zgarishlar neft quduqlaridan neftning qazib olinishi, uni qayta ishlash jarayonlari bilan bog'liq holda o'rganilgan. Maqola O'zbekiston Milliy Davlat arxivi fondlaridagi arxiv hujjatlari, xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari asosida Farg'ona vodiysida 1917-1924 yillarda neft sanoati tarixiga bag'ishlanib, mavzuga doir xulosalarni ham o'z ichiga oladi.

Аннотация

В статье рассматривается история нефтяной промышленности Ферганской долины в 1917-1924 гг. и показывается значение этой отрасли в развитии экономики и росте промышленности в целом. Изучены политические, социальные процессы, изменения во всех отраслях экономики инициированные тоталитарной советской властью и повлиявшие на добычу нефти из нефтяных скважин, процессам ее переработки. Статья посвящена истории нефтяной промышленности Ферганской долины в 1917-1924 гг. на основе архивных документов фондов Национального государственного архива Узбекистана, научных исследований зарубежных и отечественных исследователей и включает выводы по теме.

Abstract

The article deals with the history of the oil industry in the Ferghana Valley in 1917-1924. and shows the importance of this industry in the development of the economy and the growth of industry as a whole. The political, social processes, changes in all sectors of the economy initiated by the totalitarian Soviet government, which influenced the extraction of oil from oil wells, and the processes of its processing, were studied. The article is devoted to the history of the oil industry in the Ferghana Valley in 1917-1924. based on archival documents from the funds of the National State Archives of Uzbekistan, scientific research by foreign and domestic researchers and includes conclusions on the topic.

Kalit so'zlar: neft qazib olish sur'atlari dinamikasi, sanoatning barcha sohalarini yuksaltirish, mashinasozlik va transport sohalarining rivojlanishi, yashil iqtisodiyot.

Ключевые слова: динамика добычи нефти, нефтяная промышленность, факторы, влияющие на добычу, изменения в управлении производством.

Key words: oil production dynamics, oil industry, factors affecting production, changes in production management.

KIRISH

XX asrda dunyo iqtisodiyotida sanoatining rivojlanishi uglevodород yoqilg'isini qazib olish, qayta ishlash jarayonlariga bo'lgan e'tiborni kuchaytirdi. O'tgan asr boshida, birinchi jahon urushidan keyin transport va texnologiyalarning rivojlanishi, sanoatning yuksalishi jarayonida yoqilg'i energetikasiga bo'lgan talab ortib bordi. Maqola jahonda va mustabid sovet davlatida kechayotgan iqtisodiy jarayonlar ta'sirida 1917-1924-yillarda Farg'ona vodiysida neft sanoati tarixi, mazkur sohaning shu davrdagi holati, muammolari, faoliyatini mavjud arxiv ma'lumotlari, bir qator tarixchi olimlar va soha mutaxassislarining tadqiqotlari asosida o'rganishga bag'ishlangan hamda shu orqali mavzuni yoritish maqsad qilib olingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

1917-1924-yillarda Farg'ona vodiysida neft sanoati tarixini o'rganishda sohaga oid qabul qilingan me'yoriy hujjatlar, neft sanoati korxonalarining yillik hisobotlarida keltirilgan ma'lumotlar, sovet davrida nashr qilingan mavzuga oid ilmiy risola va monografiyalardan foydalanildi. Shu jumladan, Turkiston xalq komissarlari soveti(XKS)ning 1918-yil 16-martida "Neft va ko'mir sanoatining milliyashtirish to'g'risida"gi dekreti, shu yili 20-iyunda RSFSR XKSning "Neft sanoatini milliyashtirish to'g'risida"gi dekreti, "1921-yil fevral-oktabr oylarida Turkiston iqtisodiy kengashi faoliyati to'g'risida hisobot", "1922-yil 1-oktabr holatiga Turkiston Respublikasi XKS va iqtisodiy

kengashi faoliyati to'g'risida hisobot"lar, "1923-yil uchun Turkiston Respublikasining xo'jalik rejasi", "1923-1924-yillar uchun Turkiston Respublikasining xo'jalik rejasi", O'zbekiston milliy davlat arxivining R-101 "Turkiston ASSR toshko'mir va neft korxonalari davlat tresti(Ugleneft)" nomli fondning yig'ma jildlarida, R-27 fondning yig'ma jildlarida keltirilgan ma'lumotlar, sovet davrida nashr qilingan Sh.N.Ulmasbayevning "Промышленное развитие советского Узбекистана"(Sovet O'zbekistonining sanoat rivojlanishi), Sh.N.Ulmasbayev S.A.Slivaning "Индустриальное развитие Узбекистана за годы советской власти"(Sovet hokimiyati yillarida O'zbekistonning sanoat rivojlanishi) nomli risolasi, S.K.Ziyadullayevning "Промышленность Узбекистана и основные экономические проблемы ее развития" (O'zbekiston sanoati va uni rivojlantirishning asosiy iqtisodiy muammolari), A.R.Muhidov, T.T.Tojiyevning "O'zbekistonning qora oltini", I.Ye. Minsning "O'zbekiston yoqilg'i sanoati" nomli monografiyasidan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologiyasi. Ushbu maqolada 1917-1924-yillarda Farg'ona vodiysida neft sanoatining tarixini o'rganishda qiyosiy, tahliliy, statistik usullardan foydalanib, mavzuni bir nechta omillar asosida yoritib berildi. Mazkur masalani o'rganishda mavzuga oid bo'lgan asarlardan, ilmiy tadqiqot ishlaridan, arxiv materiallaridan foydalanilgan holda xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Dunyo davlatlarida neft mahsulotlariga bo'lgan talab birinchi jahon urushi va urushdan keyingi yillarda ortib borgan. Neft sanoati rivojlanib, neftni qazib olish va foydalanish jarayonlari yuqori darajaga ko'tarilgan. Jumladan, AQSH birinchi jahon urushi natijasida kelib chiqqan neft mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojning ortib borishidan unumli foydalanib 1914-yilga qiyoslagandan 1917-yilda neft qazib olish hajmini yiliga 42%ga ko'targan. Ayni paytda, jahonda neft mahsulotlarining narhi ham 1914-yil va 1917-yillar nisbatida taqqoslanganda moylash mahsulotlari 26,8%, benzin 44,8%, kerosin 50 % ga ortgan[10]. Birinchi jahon urushiga qadar Rossiya imperiyasi yiliga 9,2 mln. tonna neft qazib olib, jahon neft bozorida AQSHdan keyingi ikkinchi o'rinda turgan[11]. Ayni paytda, 1917-1924 yillarda Farg'ona vodiysida va butun Turkiston o'lkasida neftni qazib olish, qayta ishlash jarayonlari adabiyotlarda monografiya va risolalarda, arxiv ma'lumotlarida 1913-yilga nisbatan keskin pasayib borganligi kuzatiladi.

Bu holatni kengroq o'rganish va yoritish uchun ushbu davrni uch bosqichga bo'lib o'rganildi. Birinchi bosqich 1917-1918-yillarni o'z ichiga oladi va bu yillarda Turkistonda butun mamlakat iqtisodiyotida kuzatilgani kabi neft sanoatining milliyashtirilishi amalga oshirilgan. 1917-1918-yillarda neft sanoatining pasayib borishiga bir nechta omillar o'z ta'sirini ko'rsatgan. Jumladan, ishlab chiqarish ob'ektlarining eskirganligi natijasida neft qazib olishda parmalash ishlari juda ham sust olib borilgan, Rossiya imperiyasining yurtimizda olib borgan mustamlakachilik siyosati hamda mahalliy yoqilg'ini kamroq qazib olinishidan manfaatdor bo'lgan ba'zi bir monopolistik kapital egalari siyosati tufayli ham inqilobgacha ya'ni 1917-yilgacha bo'lgan davrda Turkiston o'lkasida jumladan, Farg'ona vodiysida yoqilg'i sanoati aчинаrli ahvolda bo'lgan[1]. Bunga sabab qilib, o'sha davrda Farg'ona vodiysida faoliyat olib boradigan aka-uka Nobel va SANTO (O'rta Osiyo neftni sotish jamiyati) firmalarining monopolistik intilishlari neft sanoatining o'sishiga to'sqinlik qilgan. Chunki, Farg'ona vodiysidagi neft sanoatining yuksalishi ushbu firmalar uchun ko'p xarajat talab qilishi natijasida bu hududda boshqa kompaniyalarning ochilishiga va ish boshlashiga yo'l bermagan. Bu jarayon neft sanoatiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Bundan tashqari chetdan neft mahsulotlarini Turkiston o'lkasiga olib kelinishi ham bu sohaning rivojlanishiga to'siq bo'lgan. Turkiston o'lkasiga, jumladan Farg'ona vodiysiga Rossiya imperiyasining tarkibida bo'lgan Ozarbayjonning Boku shahridan keltirilgan kerosin, mazut va boshqa neft mahsulotlari O'rta Osiyo temir yo'li bilan olib kelinib, aholiga arzon narxlarda sotilgan. Shu sababli ham neftni qazib olish va qayta ishlash jarayonlariga e'tibor pasayib borgan[2]. Shuningdek, 1918-yilga kelib, sovet hukumati tomonidan Turkiston o'lkasidagi barcha foydali qazilmalarni o'zlashtirish, davlat ixtiyoriga o'tkazish ishlari amalga oshiriladi hamda Turkiston Xalq Komissarlari Sovetining 1918-yil 16-martidagi neft va ko'mir sanoati korxonalarini milliyashtirish to'g'risidagi dekreti qabul qilinadi. Dekret asosida 11 ta konchilik korxonasi, jumladan 6 ta ko'mir, 2 ta neft, 3 ta kon sanoati milliyashtiriladi. Korxonalarni milliyashtirilishi sanoatning barcha sohalarida, jumladan, neft sanoatida ham ishlab chiqarish jarayonlariga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Chunki bu jarayon avvaldan korxonaga egalik qilib uni boshqarib kelgan korxonaga egalari va Rossiya imperiyasida bo'lib o'tgan to'ntarish natijasida


TARIX

tuzilgan sovet hokimiyatidan norozi bo'lgan kuchlarning zavod va korxonalar davlat ixtiyoriga o'tib ketishini istamaganligi tufayli ham yuzaga kelgan[3]. Shuning uchun korxonalarining milliylashtirilishi davrida sanoatning barcha sohalarida jumladan, neft sanoatida birinchi jahon urushi yillariga nisbatan ham ishlab chiqarish jarayonlari pasayib borgan. 1916-yilda Farg'ona vodiysidagi neft quduqlaridan 11,9 ming pud neft neft qazib olingan bo'lsa, 1917-yilga kelib 2 141 292 pud, 1918-yilda esa 1 755 490 pud neft qazib olindi[9]. Bundan ko'rinib turibdiki, yuqorida sanab o'tilgan omillar tufayli birinchi bosqichda ya'ni, 1917-1918-yillarda neft sanoatida ish sur'atlari pasayib borgan.

Ikkinchi bosqich biqlik yuzaga kelgan davr hisoblanadi. Bu davrda Turkiston o'lkasining dunyodan, RSFSRning markaziy o'lkalaridan uzilib qolishi, ya'ni chetdan mahsulotlarning kirib kelmaganligi sababli, sanoatning barcha sohalarida texnik ta'minotning yo'qligi, mashina ehtiyot qismlarining yetishmasligi, jumladan, neft sanoatida ham neftni qazib olinishidagi parmalash uskunalarining hamda neftni qayta ishlash jarayonidagi texnikalarning eskirganligi, yangi texnikalarning yetishmasligi tufayli ish sur'atlari keskin ravishda pasayib borgan. Biqlik davri sifatida o'rganilgan 1919-yildan 1920-yilgacha bo'lgan oralqida oldingi yillarga nisbatan ham neft quduqlaridan neft qazib olish sur'atlari ikki barobar kamayib borgan.

Turkiston o'lkasidagi istiqolchilik harakati natijasida ham neft sanoatida ishlab chiqarish ko'rsatkichlari pasayib borgan. O'lkadagi notinchlik, to'xtovsiz olib borilgan to'qnashuvlar, neft sanoati sohasida avvaldan ishlab kelgan ishchilarning bu sohada faoliyat olib borishiga istiqolchilik harakatining a'zolari qarshilik ko'rsatganligi ham bu jarayonga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Chunki istiqolchilik harakatining a'zolari milliylashtirish natijasida davlat ixtiyoriga o'tgan korxonalarda mahalliy aholining ishlashiga qarshilik qilgan. Shu tufayli ham ishlab chiqarish sur'atlari pasayib borgan. Avvaldan bu sohada faoliyat olib borgan tajribali ishchilar faoliyatini davom ettirishi uchun korxonalariga yaqin qishloq hududlarida yashab, qatnab ishlash noqulayliklar keltirib chiqargani, ularning oilasiga xavf tug'dirgani tufayli yangi uylar qurib berishini so'ragan. Aks holda ish faoliyatini davom ettira olmasligini bayon qilingan[7]. Bundan tashqari, ishchilarning ma'lum bir qismining malakasizlanishi jarayoni tufayli ham ishlab chiqarish sur'atlari pasayib borgan. Yuqoridagi ko'rsatib o'tilgan omillar sababli 1917-1920-yillarda Farg'ona vodiysida neft sanoati pasayib borgan. Bu holatni Farg'ona vodiysida joylashgan SANTO va Chimyon neft konlarida neft qazib olish hajmi ko'rsatilgan quyidagi jadval asosida ham kuzatish mumkin[4].

1917-1920-yillarda Santo va Chimyon konlarida yalpi neft qazib olish hajmi (mln. pud.)



1920-yildan boshlab neft sanoatini rivojlantirishga e'tibor qaratila boshlandi. 1920-yilda SANTO va Chimyon neftni qayta ishlash zavodlarida eski texnikalar ta'mirlandi va yangi texnikalar o'rnatilishi natijasida yangi quduqlar ishga tushirildi. 1920-yilning boshida Chimyon neft konlarida 69-sonli quduq ishga tushirildi va sutka davomida 440 pud neft qazib olinishi yo'lga qo'yildi[3. - 60 b.]. Bu jarayon ham neft qazib olish sur'atlarini o'sishiga sabab bo'ldi. Bundan tashqari sovet hukumati Turkiston sanoatini yoqilg'i va texnika bilan ta'minlashga e'tibor qarata boshladi. 1920-yilda Turkistonga Bokudan 8 million puddan ortiq suyuq yoqilg'i olib kelindi. RSFSR dan yangi elektr stansiyalari qurish uchun to'liq uskunalar, SANTO neft koniga yangi sovutish minorasi qurish uchun materiallar va boshqa sanoat uskunolari olindi. Bu jarayon ham o'z navbatida sanoatning barcha sohalarini, jumladan, neft sanoatini rivojlanishiga turtki bo'ldi.


Uchinchi bosqich yangi iqtisodiy siyosatning qo'llanishi natijasida sanoatning barcha sohalarini, jumladan, neft sanoatning tiklanish davri sifatida o'rganildi. 1921 yilning dastlabki oylarida ro'y bergan moliyaviy inqiroz, Farg'ona viloyatidagi istiqloqlilik harakati, transport qatnovining uzilishi, asosiy ishlab chiqarish materiallari va zarur jihozlarga bo'lgan ehtiyoj sababli sanoatning barcha sohalarida rejalashtirilgan vazifalarni amalga oshirish imkoni bo'lmadi. Buning natijasida ishlab chiqarish dasturlari qayta ko'rib chiqildi va sezilarli darajada qisqartirildi.

1921-yilda sanoatni rivojlantirish uchun sovet hukumatining 10-Umumturkiston qurultoyi va undan keyin bo'lib o'tgan Turkiston xalq xo'jaligi sovetlarining qurultoyida TASSRda yangi iqtisodiy siyosatni amalga oshirishga kirishildi. Yangi iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda yaxshi jihozlangan yoki davlat ahamiyatiga ega bo'lgan korxonalar o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish va o'zini o'zi boshqarish tamoyiliga, tijorat hisobiga o'tkazilgan holda davlat qo'lida qolishi kerakligi hamda ushbu korxonalar davlat ta'minotining barcha turlaridan chiqarilishi nazarda tutildi. Natijada ushbu korxonalar tijorat maqsadlarida foydalanishga o'tkazildi. Jumladan, neft sanoatida 13 korxonalar, qurilish sanoatida 11 korxonalar sifatida, jami 120 ta korxonalar tijorat maqsadlarida foydalanishga o'tkazildi. Yangi iqtisodiy siyosatni amalga oshirish jarayonida 1921-yil oxirida 10 ta davlat trestlari tuzildi. Bular "Ugleneft", "Prometall", "Tashtram", "Turkvino", "Kojevenoye ob'edineniye"(Sirdaryo viloyati), "Mukomolnoye ob'edineniye"(Sirdaryo viloyati), "Kojeveonoye ob'ediniye" (Samarqand viloyati), "Mukomolnoye ob'edideniye"(Samarqand viloyati), "Stromtrest", "Sirles"(Sirdaryo o'rmon xo'jaligi) trestlari hisoblanadi. Tog'-kon sanoatini rivojlantirish uchun "Ugleneft" tresti tuzildi. "Ugleneft" trestining olib borgan faoliyati natijasida 1921-yilda neft mahsulotlarini import va eksport qilish hajmi 1920-yilga nisbatan ortdi. 1920-yilda Turkistonga import qilingan neftning hajmi o'rtacha oylik yetkazib berish 10 150 000 / 8 1 269 000 funtni tashkil etgan bo'lsa, 1921-yilda 13 951 000/12 141 300 pudni tashkil qildi[6].

1921-yil uchun suyuq yoqilg'iga bo'lgan ehtiyoj Turkiston avtonom Respublikasining turli idoralari tomonidan 34 million pud deb baholandi. Ushbu ehtiyojni qondirish uchun 1921-yilda Turkiston o'lkasiga sovet hukumati tarkibida bo'lgan Bokudan 19 221 000 pud neft olib kelish, Farg'ona vodiysida joylashgan SANTO va Chimyon neft konlaridan 854 000 pud neft qazib olish rejalashtirildi. Amalda esa Bokudan 16 951 000 pud neft olib kelindi, SANTO va Chimyon neft konlaridan 1 059 412 pud neft qazib olindi. Bu esa yillik talabning 85 foizini qopladi[6. –175b.]. Bundan ko'rinib turibdiki, 1921-yilda neft qazib olish sur'atlari 1917-yillarga nisbatan yuqori bo'lgan. Lekin neft qazib olish hajmi oylar kesimida bir xilda bo'lmagan. 1921-yilda SANTO neftni qayta ishlash zavodida ish sur'atlari yanvar fevral oylariga nisbatan mart, aprel, iyun, iyul oylari pasayib, avgust, sentabr, oktabr, noyabr oylarida yaxshi natijalar qayd etilgan. Chimyon neftni qayta ishlash zavodida esa, yanvar oyiga nisbatan fevral oyida kamaygan, mart, aprel, may, oylarida ko'rsatkich yuqori bo'lgan, iyun oyida oldingi oylarga nisbatan pasaygan, lekin yanvar oyiga nisbatan qaralganda yuqori bo'lgan, iyul, avgust, sentabr oylarida o'sish sur'atlari kuzatilsa, oktabr, noyabr oylarida pasayish holatlari kuzatilgan. Bu holatni quyidagi jadval asosida ko'rishimiz mumkin[8].

TARIX

1921-yilda SANTO va Chimyon neftni qayta ishlash zavodlarining neft qazib olish va qayta ishlash jarayonidagi ko'rsatkichlari (ming ud)



Neft qazib olish va qayta ishlash hajmlarining har oyda bir xilda amalga oshmaganligini sababi neftning quduq yuza qismida yoki chuqurroq joylashganligi, qattiq joyda bo'lgan neftni parmalash usuli orqali qazib olinadigan texnologiyalarning rivojlanmaganligi hamda neft konlarini suv bosish holatlari tufayli, quduqlardagi universal tiqinlar, iqlimning xususiyatlari, Farg'ona vodiysida to'xtovsiz olib borilgan istiqlochlilik harakati tufayli ishlab chiqarish sur'atlariga ta'sir ko'rsatgan. Shu tufayli ham neft qazib olinishi bir xilda amalga oshirilmagan. Lekin shunga qaramasdan quduqlardan neft qazib olish sur'atlari yildan yilga samarali ravishda o'sib borgan. Bunga Turkiston o'lkasida yuritilgan yangi iqtisodiy siyosat sababi korxonalar tijorat maqsadlarida foydalanishga o'tkazilganligi hamda sanoat sohasini rivojlantirish, qayta tiklash uchun tuzilgan trestlarning olib borgan ish faoliyati o'z ta'sirini ko'rsatgan. 1922-yilga kelib sanoatni rivojlantirish va qayta tiklash uchun tuzilgan 10 ta trest qisqartirilib, 8 tani tashkil qildi. Tog'-kon sanoatini rivojlantirish va qayta tiklash uchun tuzilgan "Ugleneft" tresti tarkibida 6 ta korxonalar mavjud bo'lib, 2 tasi SANTO va Chimyon neftni qayta ishlash zavodlari hisoblanadi[7,148]. Tashkil qilingan trestlarning ish faoliyati va korxonalarni tijorat maqsadida foydalanishga o'tkazilishi natijasida sanoat sohasida o'zgarish holatlari kuzatildi. Masalan, konchilik sanoatining 1913-yildagi ko'rsatkichlari 100% deb olinsa, 1920-yilga kelib 14%, 1922 yilda 22%, 1923 yilda 23%ni tashkil qildi. Shu bilan birga sanoatining boshqa tarmoqlari ham tiklandi. Shu jumladan, yoqilg'i sanoati, neft qazib olish va qayta ishlash jarayoni yildan yilga o'sib bordi. Masalan, Chimyon neft konlarida yalpi mahsulot 1921-yilda 158 ming pudni tashkil etgan bo'lsa, 1922 yilga kelib 207 ming pudga yetdi[4,59]. Bundan ko'rinib turibdiki, 1921-yilga nisbatan 1922 yilda ishlab chiqarish hajmi ortgan.

1923-1924-yillarda ham neft qazib olish va qayta ishlash oldingi yillarga nisbatan biroz yuqori darajaga ko'tarilgan bo'lsada, lekin 1913-yilga nisbatan qiyoslanganda ko'rsatkich past bo'lgan. Bu holatni S.K.Ziyadullayevning 1967-yilda nashr qilingan "Промышленность Узбекистана и основные экономические проблемы ее развития" (O'zbekiston sanoati va uni rivojlantirishning asosiy iqtisodiy muammolari) nomli monografiyasida keltirilgan ma'lumot asosida kuzatishimiz mumkin. Unga ko'ra 1913-yilda 13 ming tonna neft qazib olingan bo'lsa, 1924-yilda 6 ming tonna neft qazib olingan[5].

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, statistik ma'lumotlar 1917-1924 yillarda Farg'ona vodiysida neft sanoati birinchi jahon urushi yillarida pastlab borgan va urushdan keyingi davrda yildan yilga ko'tarilib borgan. Bu jarayonga yuqorida aytib o'tilgan omillar o'z ta'sirini ko'rsatgan. Neft qazib olish va qayta ishlash hajmining pasayib borishi neftga bo'lgan ehtiyojni tobora ortib borishiga sabab bo'lgan. Farg'ona vodiysidan qazib olinadigan neftga bo'lgan talab qazib olingan neft tarkibida benzinning ko'pligi, parafinning mavjudligi va asfalt-qatronli moddalarning ko'pligib, qayta ishlash harajatlari kamligi bilan boshqa hududlardan qazib olinadigan neftdan farq qilgan. Shu sababli ham sovet hukumati Farg'ona vodiysidan qazib olinadigan neftga alohida e'tibor qaratgan

va imkoni boricha neft qazib olish, qayta ishlash jarayonlarini yuqori darajaga ko'tarilib borishiga intilgan. Bu esa yildan yilga neft sanoatining sekin asta tiklanib o'sib borishiga sabab bo'lgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Mins I.YE. O'zbekiston yoqilg'i sanoati. – T.Ўзбекистон. 1969. –5 б. (Mints I.E. Fuel industry of Uzbekistan. - T.Uzbekistan. 1969. - p.5)
2. Муҳидов А.Р., Тожиев Т.Т.Ўзбекистоннинг қора олтини. –Т.Фан,1972. – 22. (Mukhidov A.R., Tozhiev T.T. Black gold of Uzbekistan. - T.Fan, 1972. - p.22)
3. Ульмасбаев Ш.Н. Промышленное развитие советского Узбекистана. – Т.1958. – 33 б. (Ulmasbaev Sh.N. Industrial development of Soviet Uzbekistan. - T.1958. – p.33)
4. Ульмасбаев Ш.Н. Слива С.А. Индустриальное развитие Узбекистана за годы советской власти. – Т. 1966. – 56-59. (Ulmasbaev Sh.N. Plum S.A. Industrial development of Uzbekistan during the years of Soviet power. - T. 1966. - 56-59.)
5. Зиядуллаев С.К. Промышленность Узбекистана и основные экономические проблемы ее развития. – Т.1967. –259. (Ziyadullaev S.K. Industry of Uzbekistan and the main economic problems of its development. - T.1967. – p.259)
6. Отчет о деятельности Туркестанского экономического совета за февраль-октябрь месяцы 1921 года. – Т.1922. – С. 168-175. (Report on the activities of the Turkestan Economic Council for February-October 1921. - T.1922. - p. 168-175.)
7. Отчет о деятельности Совета Народных Комиссаров и экономического совета Туркестанской Республики. На первое октября 1922г. – Т.1922.– С. 147-303. (Report on the activities of the Council of People's Commissars and the Economic Council of the Turkestan Republic. October 1st, 1922 - T. 1922. - p. 147-303.)
- 8.ЎзРМДА. Р-27-фонд, 1-рўйхат, 1025-йиғма жилд, 24-варақ. (CGARUZ. Fund R-27, List 1, Volume 1025, Sheet 24.)
- 9.ЎзРМДА. Р-101-фонд, 1-рўйхат, 17-йиғма жилд, 45-варақ. (CGARUZ. Fund R-101, List 1, Volume 17, Sheet 45.)
10. Сапронов И. М. Значение Первой мировой войны для развития нефтяной индустрии Великобритании и США / И. М. Сапронов // Труды кафедры истории Нового и новейшего времени. – 2013. – № 11. – С. 144-152. (Sapronov I. M. Significance of the First World War for the development of the oil industry in Great Britain and the USA / I. M. Sapronov // Proceedings of the Department of History of Modern and Contemporary Times. - 2013. - No. 11. - p. 144-152.) URL: https://www.elibrary.ru/download/elibrary_21087503_90613229.pdf (Мурожаат санаси: 12.02.2022)
11. Первая мировая война: влияние на экономику России и мира: Коллективная монография. — М.: Экономический факультет МГУ имени М. В. Ломоносова, 2016. — С.13. (The First World War: the impact on the economy of Russia and the world: Collective monograph. - M.: Faculty of Economics of Moscow State University named after M.V. Lomonosov, 2016. - p.13.) URL: <https://www.econ.msu.ru/sys/raw.php?o=32541&p=attachment> (Мурожаат санаси: 12.02.2022)